



ISSN 2010-7145

FARMATSEVTIKA JURNALI

Фармацевтический журнал
Pharmaceutical journal

Pharmi.uz

2022. Том 31. №3

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

FARMATSEVTIKA JURNALI

*Jurnalga 1992 yilda asos solingan
Yilda 6 marta chiqadi*

PARMACEUTICAL JOURNAL

*Founded in 1992
Published 6 times a year*

№ 3. 2022

ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

*Основан в 1992 г.
Выходит 6 раз в год*

“FARMATSEVTIKA JURNALI” TAHRIR HAY’ATI

- | | | |
|----|--------------------|--|
| 1 | K.S. RIZAYEV | Toshkent farmatsevtika instituti rektori, t.f.d. <i>Bosh muharrir</i> |
| 2 | Z.A. YULDASHEV | Toshkent farmatsevtika instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektor farm.f.d., professor. <i>Bosh muharrir o'rinbosari</i> |
| 3 | N.S.NORMAXAMATOV | Toshkent farmatsevtika instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, k.f.d., k.i.x. |
| 4 | D.A. ZULFIKARIYEVA | Toshkent farmatsevtika instituti, toksikologik kimyo kafedrasida dotsenti, farm.f.d., dotsent. <i>Mas'ul kotib</i> |
| 5 | A.T.TO'RAYEV | O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Biorganik kimyo instituti direktorining ilmiy ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosari, k.f.d., professor, akademik |
| 6 | M.YA.IBRAGIMOVA | O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi direktorining maslahatchisi |
| 7 | Y.S. KARIYEVA | Toshkent farmatsevtika instituti dori turlari texnologiyasi kafedrasida mudiri, farm.f.d., professor |
| 8 | Z.A. NAZAROVA | Toshkent farmatsevtika instituti dori turlari texnologiyasi kafedrasida professori, farm.f.d., professor |
| 9 | N.S.FAYZULLAYEVA | Toshkent farmatsevtika instituti dori turlari texnologiyasi kafedrasida dotsenti, farm.f.n., dotsent |
| 10 | G.M.TUREYEVA | Toshkent farmatsevtika instituti dori turlari texnologiyasi kafedrasida dotsenti, farm.f.n., dotsent |
| 11 | V.R.XAYDAROV | Toshkent farmatsevtika instituti dori vositalarini sanoat texnologiyasi kafedrasida professori, farm.f.n., professor |
| 12 | X.M. YUNUSOVA | Toshkent farmatsevtika instituti dori vositalarini sanoat texnologiyasi kafedrasida professori, farm.f.d., professor |
| 13 | Z.U.USMANOVA | Toshkent farmatsevtika instituti biotexnologiya kafedrasida mudiri, farm.f.b.PhD |
| 14 | X.M. KOMILOV | Toshkent farmatsevtika instituti, farmakognoziya kafedrasida professori, farm.f.d., professor |
| 15 | F.F. URMANOVA | Toshkent farmatsevtika instituti farmakognoziya kafedrasida professori, farm.f.d., professor |
| 16 | N.T.FARMANOVA | Toshkent farmatsevtika instituti farmakognoziya kafedrasida mudiri, farm.f.n., dotsent |
| 17 | M.T.MULLAJONOVA | Toshkent farmatsevtika instituti innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo'lim boshlig'i, farm.f.n., dotsent |
| 18 | SH.R.XALILOVA | Toshkent farmatsevtika instituti farmakognoziya kafedrasida dotsenti, farm.f.n., dotsent |
| 19 | N.K.OLIMOV | Farmakognoziya va dori vositalarini standartlash kafedrasida mudiri, farm.f.d., professor |
| 20 | M.J. ERGASHEVA | O'zR SSV huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining “Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish” Davlat markazi farmako-toksikologik tahlil laboratoriyasi mudiri, b.f.d. |
| 21 | R.T. TULYAGANOV | Toshkent farmatsevtika instituti farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasida dotsenti, b.f.d., dotsent |
| 22 | K.A. UBAYDULLAYEV | Toshkent farmatsevtika instituti farmatsevtik kimyo kafedrasida professori, k.f.n., professor |
| 23 | R.A.XUSAINOVA | Toshkent farmatsevtika instituti farmatsevtik kimyo kafedrasida dotsenti, farm.f.d., dotsent |

- 24 A.D.TASHPULATOVA Toshkent farmatsevtika instituti farmatsevtik kimyo kafedrasida dotsenti, farm.f.d., dotsent
- 25 N.A.YUNUSXODJAYEVA Toshkent farmatsevtika instituti Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va sifat menejmenti kafedrasida mudiri, farm.f.d., dotsent
- 26 H.G.GANIYEVA O'zR SSV Dori vositalari va tibbiy buyumlar muomalasini tartibga solish va muruvvat yordamini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i, farm.f.d., dotsent
- 27 X.R. TUXTAYEV Toshkent farmatsevtika instituti noorganik va fizik-kolloid kimyo kafedrasida professori, farm.f.d., professor
- 28 A.T. SHARIPOV Toshkent farmatsevtika instituti noorganik va fizik-kolloid kimyo kafedrasida mudiri, farm.f.d., professor
- 29 A.A.SHABILOLOV Toshkent farmatsevtika instituti analitik kimyo kafedrasida professori, k.f.d., professor
- 30 M.FATXULLAYEVA Toshkent farmatsevtika instituti analitik kimyo kafedrasida mudiri, k.f.n., dotsent
- 31 X.BEKCHANOV Toshkent farmatsevtika instituti FITQ va FT kafedrasida dotsenti, farm.f.n., dotsent
- 32 X.N.BEKCHANOV O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi O'zbek kimyo-farmatsevtika ilmiy tekshirish instituti laboratoriyada mudiri, farm.f.n.
- 33 O.L.ROMANOVA Toshkent farmatsevtika instituti ARM yetakchi mutaxassisi.
Texnik kotib

Gulyamova Durdona Rustam qizi, Yunusxodjayeva Nodira Abdulxamitovna,
Madatova Nazira Abdugaffarovna

STOMATOLOGIYA AMALIYOTIDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARINING ASSORTIMENT TAHLILI

Toshkent farmatsevtika instituti
e-mail: nmadatova13@gmail.com

O'zbekiston Respublikasida qayd etilgan stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining tahlili Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat Reestri asosida (2018-2022 y.) olib borildi. Maqolada qo'llanilib kelinayotgan dori vositalarining shakli, asosiy ta'sir etuvchi moddalari, ishlab chiqaruvchi davlati bo'yicha tahlili olib borilgan. Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra og'iz bo'shlig'i kasalliklarida qo'llaniladigan dori vositalari jami 23 ta bo'lib, shulardan 1 (4,3%) tasi O'zbekistonda, 7 (30,4%) tasi MDH va 15 (65,3%) tasi Chet el davlatlarining korxonalaridan ishlab chiqariladigan preparatlarni tashkil qildi. Ushbu tahlil mahalliy hom ashyo asosida stomatologiya amaliyotida qo'llash uchun xavfsiz va sifatli dori vositalarini ishlab chiqarish dolzarb masala ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: assortiment tahlil, farmatsevtika bozori, farmatsevtik marketing, stomatologiya, gel, dori vositalari.

Ishning dolzarbligi. Hozirgi kunda zamonaviy stomatologiya sohasida parodontit kasalligi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra dunyo aholisining 70-98% surunkali parodontit kasalligi bilan kasallanib kelmoqda. Parodontit kasalligini davolashda asosan sintetik dori vositalaridan foydalanilmoqda. Bu esa o'z navbatida og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlarining sezuvchanligiga ta'sir ko'rsatib, immun sistemasining pasayishiga olib kelmoqda [3].

Shuni inobatga olib, tabiiy ko'simli xomashyosidan olingan biologik faol moddalardan dori preparatlarni yaratish va uni amaliyotga tatbiq qilish parodontit kasalligini oldini olish va davolashda muhim ahamiyatga egadir. Xalq tabobatida og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining oldini olish va davolash uchun asosan yallig'lanishga qarshi va turli xil yarani davolovchi xususiyatiga ega o'simliklar qo'llaniladi. Stomatologiya amaliyotida turli farmakologik guruhga mansub dori vositalari: mahalliy og'riq qoldiruvchi, turli analgetik va bakteriyalarga qarshi dori vositalar, yallig'lanishga qarshi dori vositalar, vitaminlar va boshqalar keng qo'llaniladi [2].


Ishning maqsadi. O'zbekiston Respublikasi stomatologiya amaliyotida qo'llanilib kelinayotgan dori vositalarining assortimentini 2018-2021 yillardagi davri uchun kontent tahlilini o'rganish [1].

Materiallar va usullari. Farma tsevtika bozorining salohiyatini belgilovchi marketing ko'rsatkichlaridan biri dori vositalarining assortiment tahlili hisoblanadi.

Tahlil jarayonini olib borishda ob'ekt sifatida O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 22 - son, 2019 yil 23- son, 2020 yil 24- son, 2021 yil 25 - son va 2022 yilning may oyigacha bo'lgan "O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri" ma'lumotlaridan foydalanildi [4].

Tadqiqotlar natijalari va ularning muhokamasi. Dastlabki tahlilarimiz ushbu yillar mobaynida stomatologiya amaliyotida qo'llanilayotgan dori vositalarining O'zbekiston Respublikasi, MDH va chet el davlatlarda ishlab chiqarilgan dori vositalar nomenklaturasini o'rganishdan iborat. 2022 yildagisoz6 "O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri" tahliliga ko'ra, stomatologiya amaliyotida qo'llanilib kelinayotgan dori vositalari ko'rsatkichiga ko'ra jami 23 ta dori vositasi ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shulardan 1 (4,3%) tasi O'zbekistonda, 7 (30,4%) tasi MDH va 15 (65,3%) tasi Chet el davlatlarining korxonalaridan ishlab chiqariladigan preparatlardir. Ushbu tahlil natijalari 1-rasmda keltirilgan.


UDK:615.11;615.26



1-rasm. 2022 yilda ro'yxatdan o'tgan stomatologiya amaliyotida qo'llanilayotgan dori vositalar

Ushbu olingan natijalar asosida 2018-yildagi 22-son, 2019-yildagi 23-son, 2020 yildagi 24-son, 2021-yil 25-son, 2022-yil 26-son O'zbekiston Respublikasida tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri

bilan solishtirildi. Bunga ko'ra stomatologiya amaliyotida qo'llanilayotgan preparatlarning 21 tasi 2018-yilda, 21 tasi 2019-yilda, 22 tasi 2020-yilda, 24 tasi 2021-yilda davlat ro'yxatidan o'tganligi aniqlanildi. Talil natijalari 1-jadvalda va grafik ko'rinishi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Stomatologiya amaliyotida qo'llanilib kelinayotgan dori vositalarining 2018-2022 yillar oralig'idagi statistik o'zgarishlari

Stomatologiya amaliyotida qo'llanilib kelinayotgan dori vositalarining yillar bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilganlik ko'rinishi

1-jadval

Yillar	O'zbekiston		MDH		Chet el		Jami soni
	soni	%	soni	%	soni	%	
2018	-	-	6	28,6	15	71,4	21
2019	-	-	6	28,6	15	71,4	21
2020	-	-	5	22,7	17	77,3	22
2021	-	-	6	25	18	75	24
2022	1	4,3	7	30,4	15	65,3	23

1-jadvaldagi natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki, 2018-2022 yillar oralig'ida ro'yxatdan o'tgan stomatologiya amaliyotida qo'llanilib kelinayotgan dori vositalarining assortimenti yuqori darajada. 2018-2019 yillarda ro'yxatdan o'tgan dori vositalaridazgarish bo'lmaganini va keyingi yillarda ularning sonini bittadan oshganini ko'rish mumkin. Stomatologiya amaliyotida qo'llanilayotgan dori vositalarining aksariyat qismi chet el

davlatlaridan kirib kelayotganini va mahalliy korxonalar tomonidan ushbu preparatlar deyarli ishlab chiqarilmayotganini ko'rish mumkin.

Tahlilimizning keyingi bosqichida stomatologiya amaliyotida qo'llanilib kelinayotgan dori vositalarining ishlab chiqaruvchi davlatlar bo'yicha taqsimotini amalga oshirdik. Tahlil natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida qayd etilgan stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalari ishlab chiqaruvchi davlatlar bo'yicha taqsimoti

Ishlab chiqaruvchi davlatlar nomi	Ishlab chiqarilgan dori vositasining miqdori									
	ta	%	ta	%	ta	%	ta	%	ta	%
	2018 y		2019 y		2020 y		2021 y		2022 y	
Fransiya	1	4,7			1	4,5				
Hindiston	6	29	6	29	6	27,9	6	25	6	26
Germaniya	2	9,5	2	9,5	2	9			1	4,4
Polsha	2	9,5	3	14,2	3	13,6	1	4,2	2	8,6
Bolgariya	1	4,7	1	4,7	1	4,5				
Latviya	1	4,7	1	4,7	1	4,5				
Italiya	2	9,5	2	9,5	2	9	1	4,2	2	8,6
Rossiya Federatsiyasi	1	4,7	2	9,5	1	4,5	1	4,2	1	4,4
Ukraina	3	14,3	2	9,5	2	9	5	20,8	6	26
Belarusiya	1	4,7	1	4,7	1	4,5			1	4,4
Armeniya	1	4,7	1	4,7	1	4,5			1	4,4
Makedoniya					1	4,5	1	4,2		4,4
Turkiya							3	12,4	1	4,4
Ispaniya							5	20,8	1	4,4
Bosniya							1	4,2		4,4
O'zbekiston									1	4,4
Umumiy soni	21		21		22		24		23	

2-jadvaldan ko'rinib turibiki, Respublikamizda stomatologiya amaliyotida qo'llanilayotgan dori vositalarining aksariyat qismi Hindiston farmatsevtika korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan. Bundan tashqari Ispaniya va Ukraina farmasevtik korxonalari

tomonidan ishlab chiqarilgan dori vositalari ham ro'yxatdan o'tkazilgan.

Tahlilimizning keyingi bosqichida biz stomatologiya amaliyotida qo'llanilayotgan 2021 yilda ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining dori shakli bo'yicha tahlil qildik. Tahlil natijasi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2021 yilda qayd etilgan stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining dori shakli bo'yicha taqsimoti

Dori shakli	Preparatlar soni/ulushi			Jami
	Chet el	MDH davlatlari	Mahalliy	
Dori vositalarining dori shakli ko'rinishi:				
a) Suyuq dori shakli			-	
- eritma	4	1	-	5
b) Yumshoq dori shakli				
- gel	3	1	-	4
- plyonka	3	-	-	3
c) qattiq dori shakli				
- tabletka	6	-	-	6
d) gazsimon dori preparatlar:				
- sprej	3	3	-	6

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, stomatologik kasalliklarini oldini olish va davolash uchun dori vositalar assortimentida dori shaklining bir nechta turlari (qattiq, suyuq, yumshoq va gazsimon) mavjud, ammo qattiq dori va sprej dori shakllari keng foydalanib kelinmoqda. Sprej dori shakli chet el va MDH davlatlaridan kirib kelishida teng taqsimlanganligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari keng qo'llanilib kelinayotgan tabletka dori shakllarining barchasi chet eldan kirib

kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Yumshoq dori shakllaridan plyonka va gel ko'rinishidagi dori preparatlari foydalanib kelinayotganini ko'rish mumkin va bu dori vositalar chet el farmatsevtik korxonalari tomonidan ishlab chiqarilib, ro'yxatdan o'tkazilganligi aniqlanildi.

Tahlilimizning keyingi qismida stomatologiya amaliyotida qo'llanilib kelinayotgan dori vositalarining asosiy ta'sir etuvchi moddasi bo'yicha tahlil qilindi. Tahlil natijasi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Ўзбекистон Республикасида qayd etilgan stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalari ta'sir etuvchi moddasi bo'yicha taqsimoti.

	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Xlorgekssidin, xlorbutanol	2	2	2	2	3
Metronidazol, xlorgekssidin	4	6	6	6	4
Lidokain, polidokanol	1	1	1	1	1
Lidokain, tsitilpiridin xlorid	3	2	2	2	3
Lidokain, timol	2	2	2	2	4
Metronidazol	2	2	2	2	1
Benzidamin	2	2	2	2	1
Chlorhexidine gluconate, benzydamine hydrochloride	2	1	2	2	1
Cholini salicylas		1	1	1	1
Methyluracilum, lidocainum hydrochloride	2	1	2	2	2
Metronidazole benzoate, chlorhexidine gluconate	1	1	2	2	2

Yuqoridagi jadvaldan shuni xulosa qilish mumkinki, stomatologiya amaliyotida qo'llanilb kelinayotgan dori vositalarining tarkibida asosametronidazol, xlorgekssidin, lidokain kabi asosiy ta'sir etuvchi moddasini saqlab, ushbu moddalar tabiatiga ko'ra sintetik hisoblanadi. Metronidazol mikroblarga qarshi, xlorgekssidin antiseptik va lidokain esa mahalliy og'riqsizlantirish xususiyatga ega.

Xulosa. Stomatologiya amaliyotida qo'llanilib kelinayotgan dori vositalarining assortiment tahlili o'rganildi. Shuni aytish mumkinki, stomatologiya amaliyotida foydalanilayotgan hamda ro'yxatdan o'tgan dori vositalarining aksariyat qismi chet el farmatsevtik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotganini va mahalliy farmatsevtik korxonalarda bunday dori vositalari ishlab chiqarilmayotganini ko'rish mumkin. Bunday preparatlarning assortimentining kamligidan ushbu dori vositalarga talab unchalik yuqori emasligini bilish mumkin. Stomatologiyada ishlatilib kelinayotgan preparatlar tarkibidagi asosiy ta'sir etuvchi dori moddasi mikroblarga qarshi va mahalliy og'riqsizlantirish xususiyatga ega ekanligini hisobga olib, xuddi shunday farmakologik xususiyatga ega dorivor o'simliklar tarkibidagi biologik faol moddalarni ajratib olib, dori shakli ko'rinishida ishlab chiqarish va uni stomatologiya amaliyotiga tatbiq etish amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Сарварова Д.М., Юнусходжаева Н.А., Мадатова Н.А. Изучение ассортимента антиоксидантных лекарственных средств, зарегистрированных в Республике Узбекистан // Фармацевтический вестник Узбекистана. 2022. №1. - С. 24-27.
2. Сажоковско А.В., Орищенко В.Ю., Климович Л.А., Стрельченя Т.Н., Дмитриева Э.А., Тибонко Л.Н., Горникова А.Е., Каюкова В.Д. Лекарственные средства, применяемые в пародонтологии - Дисср Днепродзержинск. -2015.-172с.
3. Мазур И.Л., Бикмуртова Н.А., Ставская Д.М. Клиническая и микробиологическая эффективность применения местных противомикробных и антисептических препаратов при лечении заболеваний пародонта // Современная стоматология. 2014. №1. - С. 32-38.

UDK:615.11;615.26

4. O'zbekiston Respublikasida ro'yhatdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri: 2018/22; 2019/23; 2020/24; 2021/25.

Гулямова Дурдона Рустам кизи, Юнусходжасва Нодира Абдулхамитовна, Мадатова Назира
Абдугаффаровна

АССОРТИМЕНТНЫЙ АНАЛИЗ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ, ПРИМЕНЯЕМЫХ В СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ

Ташкентский фармацевтический институт
• e-mail: nmadatova13@gmail.com

Проведен анализ лекарственных средств, используемых в стоматологической практике, зарегистрированных в Республике Узбекистан на основании Государственного Реестра лекарственных средств, изделий медицинского назначения и медицинской техники (2018-2022 гг.). В статье проведен анализ формы и составы используемых лекарственных средств, анализ по странам производителя. Согласно результатам проведенного анализа, всего при заболеваниях полости рта применялось 23 лекарственного препарата, из которых 1 (4,3%) был произведен в Узбекистане, 7 (30,4%) - препараты, производителями стран СНГ и 15 (65,3%) производителями зарубежных стран. Этот анализ показал, что производство безопасных и высококачественных препаратов для использования в стоматологической практике на основе местных сырья является актуальной проблемой.

Ключевые слова: ассортиментный анализ, фармацевтический рынок, фармацевтический маркетинг, стоматология, гель, лекарственные средства.

Gulyamova Durдона, Yunusходjayeva Nodira Abdulxamitovna, Madatova Nazira Abdugaffarovna

ASSORTIMENT ANALYSIS OF MEDICINES USED IN DENTAL PRACTICE

Tashkent Pharmaceutical Institute
• e-mail: nmadatova13@gmail.com

The analysis of medicines used in dental practice, registered in the Republic of Uzbekistan on the basis of the State Register of medicines, medical devices and medical equipment (2018-2022). The article analyzes the forms and compositions of medicines used, analysis by country of manufacturer. According to the results of the analysis, a total of 23 medications were used for oral diseases, of which 1 (4.3%) was produced in Uzbekistan, 7 (30.4%) drugs produced by CIS countries and 15 (65.3%) by manufacturers of foreign countries. This analysis showed that the production of safe and high-quality drugs for use in dental practice based on local raw materials is an urgent problem.

Keywords: assortment analysis, pharmaceutical market, pharmaceutical marketing, dentistry, gel, medicines.